



BO'LAJAK TARBIYACHILARNING AXBOROT KOMITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Yakubova M.

Maxarova R.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: ta'limni raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter savodxonligi, axborot-texnologik tayyorgarlik, zamonaviy ta'lim, ta'lim tizimi, kasbiy faoliyat, vositalar, mohirona ishlatilish, qobiliyat.

Ключевые слова: цифровизация образования, информационно-коммуникационные технологии, компьютерная грамотность, обучение информационным технологиям, современное образование, образовательная система, профессиональная деятельность, инструменты, умелое использование, способности.

Key words: digitization of education, information and communication technologies, computer literacy, information technology training, modern education, educational system, professional activity, tools, skillful use, ability.

Kirish. Jahon amaliyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy ta'lim berish jarayonining barcha daraja va bosqichlariga kiritish lozimligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq qilish va foydalanishdan asosiy maqsad – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, ya'ni ta'lim oluvchi va beruvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib berishdan iboratdir. AKT keng ko'lamda qo'llanilishi ta'limni sifat va samaradorlik jihatidan yuksaltirishda ko'maklashadi.

Tarbiyachilarning axborot-texnologik tayyorgarligi bir nechta komponentlarni o'z ichiga oladi. Ulardan biri axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asoslari va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash metodikasini egallash hisoblanadi. O'zbekiston respublikasi ta'limni axborotlashtirish yangi konsepsiyasi tarbiyachilarni ta'limni axborotlashtirish sharoitlarida ishlashga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Adabiyotlar ro'yhati.

So'nggi o'n yillikda maktabgacha ta'lim sohasida kompyuter texnologiyalarining keng qo'llanilishi tarbiyachini mashg'ulotlarga tarbiyalanuvchilarni qiziqishni



kuchaytirdi. O'qitishning kompyuter texnologiyasi muammosini hal qilishda rus va chet el olimlari katta hissa qo'shdilar. Jumladan G.R. Gromov, V.I. Gritsenko, V.F. Sholoxovich, O. I. Agapova, O.A. Krivosheev, S. Papert, G. Kleyman, B. Sendov, B. Hunter va boshqalar. Ta'lim jarayonida axborotlashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirishgan. Hozirgi kunda esa raqamli texnologiyaga katta ahamiyat qaratilmoqda va barcha sohalar sekin astalik bilan raqamlashtirilmoqda. Ta'limni raqamlashtirish bo'yicha qator izlanishlar, g'oyalar va takliflar amalga oshirilib kelinmoqda.

Muhokama.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini respublikamiz boshqaruv tizimida bosqichma-bosqich joriy qilinib borilishi, jamiyatimizni to'liq axborotlashtirish, ta'lim tizimi tarkibida yangi, ya'ni axborot va bilimlarga asoslangan tizimni shakllantirishga olib kelishi mumkin.

Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

– ta'lim sohasidagi yangi texnika va texnologiyalar haqidagi axborotlarni keng tarqatish kerak;

– AKT o'rganishni maktab partasidan boshlashni keng yo'lga qo'yish kerak, bu esa kompyuter savodxonligini tez vaqt ichida egallashda yordam beradi;

– ta'lim berishning barcha pog'onalarida sifat ko'rsatkichini yuksaltirish uchun AKT keng foydalanish lozim;

– bo'lajak tarbiyachilarni tayyorgarlik darajasini yanada yuksaltirish kerak bo'lib, ular esa o'z o'rnida axborotlashgan jamiyatga borish yo'lini ko'rsatib berishlari kerak;

– turli darajadagi hamkorliklar asosida AKT ta'lim sohasida samarali foydalanish ko'lamini kengaytirish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni kompyuterlashtirish samaradorligi, ishlatilayotgan vositalarining sifati va ularni o'quv jarayonida, mashg'ulotlarida oqilona va mohirona ishlatilish qobiliyatiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborotlashtirish tarbiyachi tarbiyalanuvchiga o'quv jarayonining innovatsion g'oyalarini amalga oshirishga qaratilgan yangi uslubiy ishlanmalarini amalga oshirishga qaratilgan yangi uslubiy ishlanmalarini tarbiyachiik amaliyotga keng joriy etish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Natija. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Shuningdek Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, bolalarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Haqiqiy narsalar yoki hodisalarning rang harakat va tovushda qayta yaratishga imkon beradi. Ularning qobiliyatlarini kengroq ochishga yordam beradi va aqliy faoliyatini kuchaytirib boradi. Bularning barchasi maktabgacha ta'limning sifat jihatidan yangi talablari - hayot davomida ta'limning birinchi bo'lgi bo'lib, uning



asosiy vazifalaridan biri boyitilgan bolaning rivojlanish salohiyati. Shuning uchun, axborot texnologiyalarini maktabgacha ta'lim va ta'lim tizimiga joriy etish zarur.

Bugungi kunda har qanday maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi AKTdan foydalangan holda dars tayyorlash va o'tkazishi kerak. AKTdan foydalangan dars ko'rgazmali, rang- barang, ma'lumotli, interaktiv bo'lib, tarbiyachi va bolalarning vaqtini tejaydi, tarbiyachiga bolalar bilan har xil va individual ravishda ishlashga imkon beradi, o'quv natijalarini tezkor kuzatib borish va baholash imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot texnologiyalaridan foydalanish va joriy etishning asosiy shartlaridan biri shundaki, tarbiyachi bolalarga kompyuterning texnik imkoniyatlarini biladigan, ular bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, kompyuterdan foydalanish qoidalariga aniq rioya qiladigan va maktabgacha yoshdagi bolalarni yangi axborot texnologiyalarini qanday tushintirishni biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak. Shuni hisobga olib bugungi kunning talabi har bir tarbiyachi, har bir tarbiyachi, mashg'ulotlarni zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarni darslarni sifat jihatidan yangi bosqichiga tayyorlash va o'tkazish uchun dasturiy ta'lim tizimlari, internet global kompyuter tarmog'i resurslari bilan ishlashni taqazo etmog'i darkor.

Xulosa. Har qanday bola jamiyatda o'z o'rnini topishi, mamlakatimiz ravnaqi uchun komil inson qilib voyaga yetkazish, haqida qayg'urish har bir tarbiyachi tarbiyachining axloqiy va ijtimoiy burchidir. Hozirgi kunda Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktab ta'limiga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim -tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozosidir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatlarni yanada o'stirish, bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 5 oktabr.
2. 2020 yil, PQ-6079Axborot texnologiyalari. [Text] : o'quv qo'llanma / M. Aripov [et al.] ; red. Sh. Mansurov. – T.: Noshir, 2009. – 368 c.
3. Ishmuxamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: Ta'lim muassalari tarbiyachi- o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar / R. Ishmuxamedov, A. Abdukodirov, A. Paradaev. – T. : Iste'dod, 2008. – 180 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning axborot komitentligini rivojlantirishning mazmuni haqida so'z borgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о содержании развития информационной активности будущих учителей.

SUMMARY

This article talks about the content of developing the information commitment of future teachers.